

SO'X TUMANI SARIKANDA MAHALLASIDA «HOKIM VA YOSHLAR» UCHRASHUVI O'TKAZILDI



Bugun So'x tumanining Sarikanda mahalla fuqarolar yig'inida yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan «Hokim va yoshlar» uchrashuvi tashkil etildi.

Unda tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev va o'rinbosarlari, tuman IIB boshlig'i, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi rahbari va mahalla yoshlari ishtirok etishdi. Uchrashuvda yoshlarni qiynayotgan kamchilik va muammolar ham atroflicha muhokama qilindi.

 Shundan so'ng bevosita uchrashuv ishtirokchilari tuman hokimiga o'z savollari bilan murojat etishdi va yoshlar tomonidan berilgan har bir savolga munosib javoblar berildi.

Joyida hal qilish imkoni bo'lgan og'zaki murojaatlar qanoatlantirildi. Atroflicha o'rganish taqozo etiladigan masalalarni hal etish yuzasidan vakolatli idoralarga topshiriqlar berildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-08-25 17:33:19